

XORAZM VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Otaboyeva Sojida
Tarix yoʻnalishi 4-kurs talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyatidagi ayrim tarixiy-geografik nomlarning kelib chiqishi va ularning ilmiy hamda xalqona talqinlari tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm, Xiva, Urganch, Hazoras, Doʻrman va Xonaqoh kabi toponimlarning shakllanishi, tarixiy manbalarda qayd etilishi hamda etnik va madaniy jarayonlar bilan bogʻliqligi yoritilgan. Tadqiqot davomida arab-fors manbalari, xalq rivoyatlari va olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan. Maqola Xorazm vohasining boy tarixiy-madaniy merosini hamda toponimlarning xalq tarixi va dunyoqarashini oʻrganishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit soʻzlar: Toponimika, Xorazm, Xiva, Urganch, Hazoras, Doʻrman, Xonaqoh, toponim, etnonim, tarixiy manbalar, xalq rivoyatlari, geografik nomlar, etnik jarayonlar, qadimiy shaharlar, Xorazm vohasi, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье анализируется происхождение некоторых историко-географических названий Хорезмской области, а также их научные и народные толкования. В частности, рассматриваются вопросы формирования таких топонимов, как Хорезм, Хива, Ургенч, Хазарасп, Дурман и Хонака, их упоминание в исторических источниках, а также связь с этническими и культурными процессами. В ходе исследования использованы арабо-персидские источники, народные предания и научные взгляды исследователей. Статья раскрывает богатое историко-культурное наследие Хорезмского оазиса и значение топонимов в изучении истории и мировоззрения народа.

Ключевые слова: Топонимика, Хорезм, Хива, Ургенч, Хазарасп, Дурман, Хонака, топоним, этноним, исторические источники, народные предания, географические названия, этнические процессы, древние города, Хорезмский оазис, культурное наследие.

Kirish. Har bir xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashi uning joy nomlarida, ya'ni toponimlarida o'z aksini topadi. Toponimlar orqali o'tmish voqealari, etnik jarayonlar, tabiiy sharoitlar hamda xalqning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu bois toponimika fani tarix, tilshunoslik va geografiya bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelmoqda.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib, bu hududda ming yillar davomida turli xalqlar va qabilalar yashab, boy tarixiy meros qoldirgan. Xorazm viloyatidagi shahar, qishloq, qal'a, ariq va boshqa geografik obyektlar nomlari ana shu murakkab tarixiy jarayonlarning mahsulidir. Ularning kelib chiqishini o'rganish orqali hududning qadimgi aholisini, etnik tarkibini, diniy va ijtimoiy hayotini chuqurroq anglash mumkin.

Mazkur ishda Xorazm viloyatidagi ba'zi toponimlar, jumladan Xorazm, Xiva, Urganch, Hazorasp, Do'rman, Xonaqoh, Qaraman, Yap kabi joy nomlarining kelib chiqishi, ular bilan bog'liq ilmiy qarashlar va tarixiy manbalar tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Xorazm viloyatidagi ayrim toponimlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi hamda ularning etnik va madaniy jarayonlar bilan bog'liqligini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Xorazm — O'zbekistondagi eng qadimiy tarixiy-madaniy hududlardan biri bo'lib, uning toponomikasi ming yillik tarixga ega. Xorazm nomining kelib chiqishi haqida turli ilmiy qarashlar va rivoyatlar mavjud. O'rta asr arab olimlari Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida keltirilgan rivoyatga ko'ra, bir podsho o'zining bebosh fuqarolarini kimsasiz va uzoq hududga badarg'a qiladi. Ammo bu yerda o'tin va go'sht, ya'ni Amudaryoda baliq ko'pligi sababli ular omon qolib, hududni obod etadilar va uni Xorazm deb ataydilar. Rivoyatda "xovar" — "go'sht", "azm" — "o'tin" ma'nolarini

bildirishi aytiladi. Albatta, bu faqat xalq og‘zaki ijodiga mansub talqindir. Xorazm toponimi esa asrlar davomida shakllanib, hozirgi nomigacha yetib kelgan.

Xiva — O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi V asrda barpo etilgan. Shahar nomining kelib chiqishi haqida ham bir nechta fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar Xiva nomini shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xivak) qudug‘i bilan bog‘laydilar. Boshqalar esa bu atama xorazmiy tilga yaqin qadimgi asetin tilidagi “xiauv” — “qal’a” so‘zidan yoki Xiva hududidan oqib o‘tgan Xeykaniq kanalining o‘zgargan shakllaridan (Xeykaniq — Xeyvaniq — Xeyvaq — Xiva) kelib chiqqan deb hisoblaydilar.

Xorazmlik tarixchi Xudoyberdi Qo‘shmuhammad “Dili g‘aroyib” (1831) asarida Xorazmning qadimiy shaharlarini sanab, Xivaq qal’asiga Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Som asos solganini ta’kidlaydi. Xalq rivoyatlarida ham Xiva shahrining bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Ichan qal’ada saqlanib qolgan qadimgi Xeyvaq qudug‘i bu rivoyatlarning tarixiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xiva shahri haqidagi dastlabki ishonchli yozma ma‘lumotlar X asrdan boshlab arab-fors manbalarida uchraydi. Istahriy Xivani o‘z davridagi eng yirik 30 shahar qatoriga kiritgan. Yoqut Hamaviy va Nizomiddin Shomiy asarlarida ham Xiva karvon yo‘llari ustida joylashgan muhim savdo markazi sifatida qayd etilgan. Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni YUNESKO tomonidan e’tirof etilib, 1997-yilda shaharning 2500 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi.

Urganch ham Xorazmning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Qadimgi Urganch — Gurganch hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan bo‘lib, bugungi kunda Ko‘hna Urganch nomi bilan mashhur. Unga 2000 yildan ortiq vaqt avval asos solingan. XVI asrda Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi natijasida shahar suvsiz qolgan. Shundan so‘ng Xiva xoni Abdulg‘oziy Bahodirxon 1646-yilda aholini Amudaryoning quyi oqimiga ko‘chirib, “Toza Urganch” yoki “Yangi Urganch” shahriga asos solgan.

Urganch nomining kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. “Avesto”da Burunash (Orol) dengizi bo‘yida Urga (Urva) shahri mavjud bo‘lgani qayd etilgan. VIII asrgacha shahar “Gurganj”, arablar istilosidan keyin “Jurjoniya” deb atalgan. 1221-yildan so‘ng

Urganch shakli keng tarqalgan. Xitoy yilnomalarida Yue-Tan, Yue-Tsyan, Yevropa manbalarida esa Vrgant shaklida tilga olingan.

Hazorasp shahri X–XI asr arab geograflari tomonidan mustahkam qal’a sifatida ta’riflangan. Ko’pchilik olimlar “hazor” — “ming”, “asp” — “ot” degan ma’noni bildirib, “ming otliq” degan talqinni ilgari suradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa Hazorasp nomini “Aturasp” — “muqaddas olov manzili” bilan bog’laydilar.

Xorazm hududida yashagan o‘zbek qabilalaridan biri Do‘rman (Do‘rmon) bo‘lib, ular XVI–XVIII asrlarda Dashti Qipchoqdan ko‘chib kelgan. Do‘rmanlar Zarafshon vodiysi, Surxondaryo, Toshkent vohalari va qisman Xorazmda yashaganlar. Qabila qo‘yli, uchurug‘, ko‘kchelak, sakson, no‘g‘oy, gurdak, oytamg‘ali kabi urug‘larga bo‘lingan. Bugungi kunda ko‘plab hududlarda Do‘rman, Do‘rmoncha, Do‘rmonon nomli qishloqlar mavjud.

Xonaqoh — shayxlar va darveshlar zikr va samo qiladigan, g‘arib va miskinlar boshpana topadigan maskan hisoblangan. Xonaqohmaydon, Uyshunxonaqoh kabi toponimlar hamda Xorazm viloyatidagi Xonqa shahri nomi shu atamadan kelib chiqqan.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Xorazm vohasi toponimlari va ularning kelib chiqishini o‘rganishda tarixiy, geografik va tilshunoslikka oid ko‘plab manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosan qadimgi yozma manbalar, xalq rivoyatlari hamda zamonaviy ilmiy izlanishlarga tayangan holda amalga oshirilgan.

Qadimgi manbalar orasida Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlari alohida o‘rin tutadi. Ularning asarlarida Xorazm, Xiva va boshqa shaharlarning geografik joylashuvi, iqtisodiy ahamiyati hamda ayrim toponimlarning kelib chiqishi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, “Xorazm” nomi bilan bog‘liq rivoyatlar ushbu manbalarda keng yoritilgan.

Istahriyning “Kitob al-masolik val-mamolik” asarida Xiva va Urganch shaharlari savdo va karvon yo‘llari markazi sifatida tavsiflangan. Ushbu ma’lumotlar shaharlarning qadimdan strategik va iqtisodiy jihatdan muhim hudud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xorazm tarixiga oid mahalliy manbalardan biri Xudoyberdi Qo‘shmuhammadning “Dili g‘aroyib” asaridir. Asarda Xiva shahrining bunyod etilishi, qadimgi qal’alar va xalq orasidagi rivoyatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bu manba xalq og‘zaki ijodi va tarixiy qarashlarni o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi va toponimika bo‘yicha yaratilgan ilmiy qo‘llanmalarda Xorazm hududidagi geografik nomlarning etimologiyasi ilmiy asosda izohlangan. Zamonaviy tadqiqotlarda toponimlarning lingvistik xususiyatlari, etnik jarayonlar bilan bog‘liqligi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari keng tahlil qilinadi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar Xorazm vohasining boy tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu manbalar orqali hududdagi toponimlarning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va xalq hayotidagi o‘rni haqida keng tasavvur hosil qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha quyidagilar olindi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiy, qiyosiy-tahliliy hamda lingvistik metodlardan foydalanildi. Xorazm viloyatidagi toponimlarning kelib chiqishini o‘rganishda qadimgi tarixiy manbalar, arab-fors mualliflari asarlari, xalq rivoyatlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Toponimlarning etimologiyasini aniqlashda tilshunoslik va toponimika fanining ilmiy yondashuvlariga tayanildi. Shuningdek, geografik nomlarning tarixiy shakllanishi, etnik jarayonlar bilan bog‘liqligi hamda hududiy xususiyatlarini o‘rganishda qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida Xorazm vohasiga oid tarixiy-adabiy manbalar, ensiklopedik ma’lumotlar hamda ilmiy maqolalar o‘zaro solishtirilib, umumlashtirish usuli asosida xulosalar chiqarildi.

Taxlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyatidagi ayrim toponimlar tarixiy, lingvistik va etnografik nuqtai nazardan tahlil qilindi. O‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hududdagi joy nomlari ko‘p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo‘lib, ular qadimgi sivilizatsiyalar, qabila va urug‘lar harakati hamda tabiiy-geografik sharoitlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Xorazm toponimi bo'yicha tahlillar uning kelib chiqishi haqida aniq bir yagona ilmiy fikr mavjud emasligini, balki turli rivoyat va ilmiy qarashlar mavjudligini ko'rsatdi. Xiva, Urganch va Hazorasp kabi shahar nomlari esa tarixiy manbalarda qadimdan savdo, madaniyat va strategik markazlar sifatida qayd etilgan bo'lib, ularning nomlanishi turli tillar va davrlar ta'sirida shakllangan.

Shuningdek, Do'rman toponimi etnik qabila nomi bilan bog'liq ekanligi, Xonaqoh esa diniy-ma'rifiy markazlar bilan aloqador joy nomi sifatida shakllangani aniqlangan. Bu esa Xorazm hududida toponimlarning nafaqat geografik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xorazm viloyati toponimlari hududning qadimiy tarixi, madaniyati va etnik jarayonlarini aks ettiradi. Ularni o'rganish orqali mintaqaning tarixiy rivojlanishi haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin.

- Toponimlarni chuqur ilmiy o'rganish, ularni saqlash va yoshlar orasida targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avesto – Toshkent: Sharq nashriyoti, turli nashrlar.
2. Yoqut Hamaviy. *Mu'jam al-buldon* asari.
3. Muqaddasiy. *Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim* asari.
4. Istahriy. *Kitob al-masolik val-mamolik* asari.
5. Xudoyberdi Qo'shmuhammad. *Dili g'aroyib*. 1831-yil.
6. Nizomiddin Shomiy. *Zafarnoma* asari.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Geografik nomlar imlosi. Toshkent, Fan nashriyoti.
9. Toponimika bo'yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.
10. Xorazm viloyati tarixiga oid arxeologik va etnografik manbalar.